

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8  
2023



Tosh o'rmoni  
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .....	6
<b>Muxiddin Kalonov</b> , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
<b>Jumayev Olimjon Sadulloyevich</b> , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
<b>Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich</b> , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
<b>Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li</b> , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .....	34
<b>Mamaraximov Bekzod Erkinovich</b> , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
<b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b> , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
<b>Axmedov Sayfullo Normatovich</b> , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
<b>Berdiyev Anvar Abduraxmonovich</b> , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .....	56
<b>G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .....	61
<b>Olimjanova Nigora Alisherovna</b> , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
<b>Saydirasulov Laziz Alimovich</b> , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .....	71
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , kafedra dotsenti; <b>Axmedov Akbarali Sultonmurodovich</b> , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .....	78
<b>Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич</b> , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
<b>Махмудов Носир Махмудович</b> , д. э. н., профессор; <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b> , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
<b>Sherali Xolliyev</b> , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .....	94
<b>Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
<b>Xakimov Ziyodulla Axmadovich</b> , dotsent; <b>Axmadova Rayxona Jasurbek qizi</b> , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
<b>Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi</b> , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
<b>Abdiyeva Flora Botir qizi</b> , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .....	114
<b>Abdullahayev Farxod Ozodovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .....	119
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .....	125
<b>Sanakulova Barnogul Rizakulovna</b> , Doctor of Economic Science, Professor;	
<b>Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli</b> , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
<b>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</b>	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution .....	133
<b>Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li</b>	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili .....	138
<b>Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li</b> , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
<b>Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida .....	151
<b>Sharifi Ahmad Sakhrob</b> , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны .....	156
<b>Суюнова Фотима Баходир кизи</b> , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози .....	161
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
<b>G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi</b> , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане .....	174
<b>Жуманиязова Феруза</b> , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
<b>Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna</b> , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
<b>Nilufar Sharipova</b> , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar .....	197
<b>Nurillayev Jamoliddin Yarashevich</b> , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
<b>O'roqov Mamurali Odil o'g'li</b> , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi .....	208
<b>Razzaqov Jasur Hamraboievich</b> , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
<b>Рузиева Дилноза Абдусаматовна</b> , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari .....	216
<b>Saydullayev Shaxzod Sherzodovich</b> , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения .....	222
<b>Хажиев Бахтиёр Душабоевич</b> , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari .....	227
<b>Adizov Sardor Rashidovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish .....	231
<b>Mamatov Sardor Axmatjonovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
<b>Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li</b> , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана .....	243
<b>Мирзахалилова Азизахон Алишеровна</b> , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish .....	249
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b> , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni .....	254
<b>Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li</b> , PhD; <b>Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики .....	259
<b>Отакулов Махамаджон Каримович</b> , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	264
<b>Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li</b> , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
<b>Eshmatov Sanjar Ashirqulovich</b> , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
<b>Gadoyev So'hrob Jumakulovich</b> , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
<b>Алимова София Розумбаевна</b> , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
<b>Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich</b> , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
<b>N. N. Ismatullayeva</b> , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
<b>Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna</b> , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
<b>Жураева Нодира Фузулий кизи</b> , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari .....	310
<b>G. Abduvosidova</b> , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
<b>Nazarov Shohbek Isroilovich</b> , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich</b> , professor; <b>Allaberganova Zakir Gayibovich</b> , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna</b> , PhD; <b>Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li</b> , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli .....	330
<b>Norov Akbar Ruzimamatovich</b>	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi .....	335
<b>Xoliqov Ulug'bek Rustamovich</b> , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba .....	341
<b>N.N.Ro'ziyev</b>	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
<b>Astanov Sherzod Rustamovich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
<b>Nosirova Charos</b>	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
<b>Irgasheva Gulbahor Sodiqovna</b> , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari .....	369
<b>Abduxamidova Gulxayo</b> , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili .....	374
<b>Xatamov Nurbek Ochildeyevich</b> , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
<b>Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi</b> , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami .....	386
<b>Xайдарова Малика Шакирджановна</b> , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili .....	396
<b>S.T.Toshaliyeva</b> , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
<b>Ruzibayev Jahongir Nodirovich</b> , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
<b>Nabiiev Feruz Nurmurodovich</b> , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish .....	412
<b>Imomova Nodira Shavkatovna</b> tadqiqotchi, <b>Sultonov Mansur Qilichevich</b> PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
<b>Xashimova Naima Abitovna</b> , i.f.n., professor; <b>Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li</b> assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
<b>M.A.Saparova</b> , talaba	



# BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHDA FISKAL VA MONETAR QOIDALAR DAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI

Hakimjon Hakimov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “fiskal qoidalar” va “monetar qoidalar” ning mohiyati o’rganiladi va ularning makroiqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishdagi zaruriyat muhokama qilinadi. Maqolada budget taqchilligini cheklash yoki davlat qarzining uzoq muddatli maqsadlarini belgilash kabi fiskal qoidalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi. Maqolaning yakunida optimal makroiqtisodiy siyosatga erishish uchun fiskal va monetar qoidalardan kelishilgan holda foydalanish zarurligi asoslanadi.

**Kalit so’zlar:** fiskal qoidalar, monetar qoidalar, makroiqtisodiy siyosat, moliyaviy barqarorlik, barqaror iqtisodiy o’sish, siyosatni muvofiqlashtirish, inflyatsiya, iqtisodiy moslashuv.

**Abstract:** This article explores the nature of “fiscal rules” and “monetary rules” and discusses their need for macroeconomic policy coordination. The article analyzes the advantages of using fiscal rules, such as limiting the budget deficit or setting long-term targets for public debt. The article concludes by emphasizing the need for the coordinated use of fiscal and monetary rules in order to achieve optimal macroeconomic policy.

**Key words:** fiscal rules, monetary rules, macroeconomic policy, financial stability, sustainable economic growth, policy coordination, inflation, economic adjustment.

**Аннотация:** Данная статья исследует сущность “фискальных правил” и “монетарных правил” и обсуждает их необходимость в координации макроэкономической политики. Статья анализирует преимущества использования фискальных правил, таких как ограничение дефицита бюджета или установление долгосрочных целевых показателей для государственного долга. В заключение статьи подчеркивается необходимость согласованного использования фискальных и монетарных правил для достижения оптимальной макроэкономической политики.

**Ключевые слова:** фискальные правила, монетарные правила, макроэкономическая политика, финансовая стабильность, устойчивый экономический рост, координация политик, инфляция, экономическая адаптация.

## KIRISH

Fiskal va monetar qoidalar butun dunyo bo’ylab makroiqtisodiy siyosatni boshqarish va muvofiqlashtirish uchun qo’llaniladigan ikkita asosiy strategiyadir. Ular iqtisodiy barqarorlikni saqlash, barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minalash, moliyaviy inqirozlarning oldini olishda muhim o’rin tutadi.

Fiskal qoidalar odatda davlat moliyasini, shu jumladan soliqlarni, davlat xarajatlarini va qarzlarni qanday boshqarishi kerakligi haqidagi tavsiyalarni o’z ichiga oladi. Ushbu qoidalar moliyaviy intizomni ta’minalaydi va moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin bo’lgan xatarlarning oldini olishga yordam beradi.

Boshqa tomondan, monetar qoidalari markaziy banklar inflyatsiyani nazorat qilish va valyuta kursini barqaror ushlab turish uchun pul massasi va foiz stavkalarini qanday boshqarishi kerakligini belgilaydi. Monetar qoidalari iqtisodiyotning haddan tashqari qizib ketishning oldini olishga va inflyatsiyani nazorat qilishga xizmat qiladi, bu esa o’z navbatida iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Bu ikki turdagilardan birgalikda foydalanish davlat boshqaruv organlariga kelishilgan va izchil makroiqtisodiy siyosat yuritish imkonini beradi. Biroq, ushbu qoidalarning samaradorligi ko’p jihatdan ularning o’zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga va kutilmagan zarbalarga moslashish qobiliyatiga bog’liq.



Iqtisodchilar Luis Carranza-Ugarte, Julián Díaz-Saavedra va Jose Enrique Galdon-Sanchez (2023) larning “Rethinking fiscal rules” nomli maqolasida turli fiskal qoidalarning farovonlik, davlat xarajatlari va o’sishga ta’sirini tadqiq etishga mo’ljallangan kichik ochiq iqtisodiyot uchun umumiylu muvozanat, bir davrda yashayotgan avlodlar modeli (OLG model) ishlab chiqiladi. Mualliflar (Peru iqtisodiyoti misolida) fiskal qoidalari, agar fiskal natija ustidan nazoratni saqlab qolishdan tashqari davlat investitsiyalarini ham saqlab qolsa, ishlab chiqarish hajmi (tafovuti) bo'yicha ijobjiy natijalarga olib kelishini aniqlaydilar. Shuningdek, tarkibiy fiskal qoidalarni amalga oshiradigan iqtisodiyotlarning samaradorligi budget balansiga asoslangan qoidalarni joriy etgan iqtisodiyotlarning ko'rsatkichlariga qaraganda yaxshiroq bo'lishini aniqlaydilar<sup>[1]</sup>.

Iqtisodchi Hovick Shahnazarian (2023) ning “Fiscal stabilization rule” nomli maqolasida optimal fiskal barqarorlashtirish qoidasi keltiriladi. Ushbu qoida yo'qotish funksiyasi (loss function)dan kelib chiqadi, bunda hukumat maqsadli darajaga yaqin bo'lgan tarkibiy muvozanatni saqlab qoladi hamda YALM va inflyatsiya bo'shlqlarini barqarorlashtiradi deb taxmin qilinadi. Qoida avtomatik stabilizatorlarga qo'shimcha ravishda davlat moliyasining mustahkamligiga putur yetkazmasdan biznes siklini barqarorlashtirish uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy barqarorlashtirish choralari miqdorini tavsiya etadi<sup>[2]</sup>.

Iqtisodchilar Bimal Adhikari, Jeffrey King, Krishna Chaitanya Vadlamannati va Daniel Ofoe Chachu (2023) larning “Why do some natural resource-rich countries adopt prudent fiscal rules?” maqolasida tabiiy resurslar boyligi va resursga boy davlatlarga “resurs la'nati” deb ataladigan ta’sirni yumshatishga yordam beradigan fiskal qoidalarni joriy qilish o'rtaqidagi bog'liqlik tadqiq etiladi.

Mualliflarga ko'ra, resurslarga boy mamlakatlar tomonidan fiskal qoidalarni joriy qilish ilgari bir-biriga bog'liq bo'limgan bir qator omillarga bog'liq, jumladan, davlatlar tabiiy resurslardan katta miqdorda renta oladimi, yoki ular yuqori darajadagi ichki institutsional sifatga egami yoxud bunday qoidalarni qabul qilish uchun tashqaridan bosimga duchor bo'ladi. Maqolada 1985–2015-yillardagi 166 ta mamlakat bo'yicha panel ma'lumotlaridan foydalangan va ichki institutlar sifatini hisobga olgan holda, tabiiy resurslardan renta haqi olishda umuman oqilona moliyaviy qoidalarni qabul qilish ehtimoli kamroq ekanligi aniqlangan. Biroq, tabiiy resurslar boyligining davlatlarning fiskal qoidalarni joriy qilish ehtimoliga salbiy ta'siri asosan institutsional sifati past bo'lgan mamlakatlarda qayd etilgan. Bundan tashqari, XVFning fiskal sharoitlar ko'rinishidagi tashqi bosimlari hukumatlarning fiskal qoidalarni qo'llash ehtimolini oshirishi aniqlangan, bu hukumatlarning “resurs la'nati”ni yengilashtirish yo'llari borligini ko'rsatadi.

Ushbu xulosalar muqobil ma'lumotlar, model spesifikatsiyalari va baholash strategiyalari, shu jumladan instrumental o'zgaruvchan yondashuv uchun mustahkamdir<sup>[3]</sup>.

Iqtisodchi Antoine Le Riche (2022) “Balanced-budget fiscal rules and money growth pegging” nomli maqolasida monetar siyosat qoidalari va bir tarmoqli Ramsey iqtisodiyotining barqarorlik xususiyatlari bo'yicha bilvosa muvozanatlashgan budget-soliq siyosati qoidalari o'rtaqidagi o'zaro ta'sirni tahlil qiladi. Mualifga ko'ra, pul-kredit organlari pul massasining o'sish sur'atlarini jilovlaydilar, fiskal organ esa o'z budgetini muvozanatlashtirish uchun egri daromad solig'i yoki egri iste'mol solig'iidan foydalananadi.

Maqolada egri soliqni qo'llashdan qat'i nazar, muvozanatli budget qoidasini joriy etish likvidlik cheklanishining amplitudasiga va soliq shkalasining qiyaligiga bog'liq bo'lgan o'z-o'zini bajaradigan taxminlarni rag'batlantirishi yoki kamaytirishi mumkinligi aniqlanadi.

Ishonarli empirik qiymatlarga asoslanib, kontrsiklik soliq stavkalari hisobga olingan oddiy raqamli misol keltiriladi va daromad solig'i stavkalari uchun ham, iste'mol solig'i stavkalari uchun ham muvozanatli budget fiskal qoidalarni joriy etish barqarorlashuvga olib kelishi mumkinligi asoslanadi<sup>[4]</sup>.

Iqtisodchilar Graciela Chaparro Guevara va Lorenzo Escot (2021) larning “Monetary policy rules: An approach based on the theory of chaos control” nomli maqolasida pul-kredit siyosati uchun Teylor qoidalari va tartibsizlik (xaos) ni boshqarish usullaridan olingan qoidalari o'rtaqidagi munosabatlar o'rganiladi. Mualliflarga ko'ra, ikkala turdag'i qoidalarning o'xshash tuzilishi nazariy jihatdan Teylor qoidasining inflyatsiyani nazorat qilishda barqarorlashtiruvchi rolini qo'llab-quvvatlaydi va bu empirik jihatdan asoslanadi.

Maqolada pul-kredit siyosati va tartibsizlikni nazorat qilish qoidalari o'rtaqidagi bu munosabatlar tartib-sizlikni nazorat qilishning OGY usuli yordamida tasvirlanadi, natijada, xaotik yechimlarni taqdim etadigan va barqaror inflyatsiya darajasi bilan obyektiv muvozanat nuqtasida barqaror bo'ladigan pul modeliga nisbatan qo'llaniladigan nazorat qoidasi paydo bo'ladi<sup>[5]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada “fiskal qoidalari” va “monetar qoidalari”ni izohlovchi asosiy sabablar tahlil va taqqoslash metodi-leri asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda adabiyotlarni tahlil qilish va axborot sintezi usullaridan foydalilanigan. Shuningdek, maqolada modellashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va empirik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalilanigan.



## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirishda “fiskal qoidalar” va “monetar qoidalar” kabi moliyaviy mexanizmlardan foydalanish mumkin. Ushbu qoidalar shuni anglatadiki, har ikkala siyosat o‘zining muayyan iqtisodiy ko‘rsatkichlariga oldindan aniq belgilangan cheklov (chegara, me’yor) o‘rnatadi. Natijada har ikki siyosat idoralari bir-birining xatti-harakati, maqsadli ko‘rsatkichlari hamda ehtimoliy xavflarning mumkin bo‘lgan maksimal darajasi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladi hamda o‘zaro maqsadli ko‘rsatkichlar doirasida mustaqil harakatlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Fiskal qoidalar atamasiga juda keng ko‘lamda ta’rif berish mumkin. Fiskal qoidalar deganda mavjud moliyaviy ko‘rsatkichlarga qonuniy tartibdagi cheklovlarning o‘rnatilishi deb tushunish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Fiskal qoidalarning asosiy maqsadlari quyidagicha:

1. Hukumatning fiskal siyosatiga bo‘lgan ishonchni oshirish va majburiyatlarni kamaytirish yo’llarini osonlashtirish.
2. Fiskal siyosatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minalash.
3. Xalqaro hamkorliklar doirasida fiskal siyosatning tutgan o‘rnini yaxshilash.

O‘zbekiston Respublikasida fiskal siyosatni amalga oshirishda fiskal qoidalar tushunchasidan kam foydalilanigan. Bunga sabab ushbu mexanizm mahalliylashtirilmaganligidadir. Biroq Hukumat va Markaziy bank tomonidan ushbu amaliyotni tatbiq etish ustida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra “fiskal qoidalar”ning nazariy-uslubiy asoslarini quyidagicha shakllantirish mumkin (1-jadval).

**1-jadval: Fiskal qoidalarning afzallik va kamchiliklari**

Qoida turi	Afzallik	Kamchilik
Budjet balansi qoidasi	Operatsion ko‘rsatmalarga aniq amal qilish; Qarz barqarorligiga yaqin bog‘liqlik; muloqot va monitoring qilish oson.	Iqtisodiy barqarorlik xususiyati yo‘q (prosiklik bo‘lishi mumkin); Asosiy balansga hukumat bilan bog‘liq bo‘limgan hodisalar ta’sir ko‘rsatishi mumkin (masalan, jiddiy iqtisodiy inqiroz).
Qarz qoidasi	To‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikning barqarorligi; muloqot va monitoring qilish oson.	Qisqa muddatda siyosatning qarzdorlik darajasiga ta’siri tezkor emasligi sabab aniq operativ ko‘rsatmalar mavjud emas; Iqtisodiy barqarorlik xususiyati yo‘q (prosiklik bo‘lishi mumkin); Qoidalar vaqtinchalik chora-tadbirlar yordamida bajarilishi mumkin (masalan, past-liniyalı bitimlar).
Strukturaviy budjet balansi qoidasi	Nisbatan aniq operatsion boshqaruvi; Qarz barqarorligiga yaqin bog‘liqlik; Iqtisodiy barqarorlik vazifasi (iqtisodiy shoklar hisobiga); Boshqa bir-martalik va vaqtinchalik omillarni hisobga olishga imkon beradi.	Ayniqsa, tizimli o‘zgarishlarga duch kelayotgan mamlakatlar uchun siklni tuzatish murakkablashadi; O‘zboshimchalik bilan foydalanishdan qochish uchun bir-martalik va vaqtinchalik omillar aniqlanishi kerak; Murakkablik aloqa va monitoringni qiyinlashtiradi.
Xarajatlar qoidasi	Operatsion ko‘rsatmalarga aniq amal qilish; Iqtisodiy barqarorlikni ta’minalaydi; Hukumatning ko‘lamini boshqaradi; muloqot va monitoring qilish nisbatan oson.	Qarzni qabul qilish bilan bevosita bog‘liq emas, chunki daromad cheklovlari yo‘q; Agar sarflarni oshirish qoidalar bilan qamrab olinmagan xarajatlar kategoriyalari o‘tishga olib kelsa, xarajatlarni taqsimlashda istalmagan o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.
Daromad qoidasi	Hukumatning ko‘lamini boshqaradi; Daromad siyosatini va boshqaruvini yaxshilaydi; Prosiplik xarajatlarni oldini oladi (mavsumiy daromaddan foydalanishni cheklovchi qoidalar).	Qarz barqarorligi bilan bevosita bog‘liq emas, chunki xarajatlar tomonidan cheklov yo‘q (kutilmagan daromadlardan foydalanishni cheklovchi qoidalar bundan mustasno); Iqtisodiy barqarorlik xususiyati yo‘q (prosiklik bo‘lishi mumkin).

Manba: [Jean-Louis Combes, Alexandru Minea, Moussé Sow. (2017). Is fiscal policy always counter-(pro-) cyclical? The role of public debt and fiscal rules. Economic Modelling, 65, 138–146] [6] ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyорlandi.

**Qarzlarga cheklov.** Qarzlarga cheklov qo‘yish qoidasi davlat qarzlarining ruxsat etilgan maksimal hajmiga nisbatan o‘rnatalidi. Bu qoidaning afzalligi shundaki, uni amalga oshirish mexanizmi nisbatan oson va moliya siyosatini amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun tushunarli hisoblanadi.



Muhim kamchiligi bu – qoidani qisqa muddatli jarayonlarda qo'llashning qiyinligi hisoblanadi. Bundan tashqari qarzlar ichiga kirib ketuvchi majburiyatlarning asoslari moliyaviy hukumatning qo'l ostida bo'lmasligi ham muammo hisoblanadi (masalan: foiz stavkasi yoki valyuta ayrboshlash kursi). Davlat kafolatidagi loyihalar, subsidiyali kreditlar va davlat banklarining kapitallashishi ham bu qoidani ijrosiga bir muncha to'siq bo'lishi mumkin.

Bu qoida qisqa muddatli oraliqda budjet siyosatining davriyigini kamaytirishga (ayniqsa qarz yoki majburiyat yalpi ichki mahsulotga nisbatan olingan bo'lsa) yordam beradi. Bu vaqda budjet konsolidatsiyasi talab qilinishi mumkin<sup>[7]</sup>.

Fiskal qoidalarni qo'llashni taqazo etuvchi 2 muhim ko'rsatkich mayjud bo'lib, birinchi ko'rsatkich bu, siyosiy va institutsional faktorlarning defitsit miqdorining o'sib ketishi va tarkibiy siyosatining nomuwofigligi paytda beriladigan davlat kreditlariga nisbatan fiskal qoidalardan foydalanish hisoblanadi.

Ikkinci ko'rsatkich – bu valyuta siyosati yuz beradigan ta'sirlar bilan xarakterlanib, hukumat a'zolarining defitsitiga nisbatan cheklar o'rnatishida, fiskal qoidalardan foydalanish, hamda kamayib boruvchi fiskal qoidalarning oldini olishidir.

Biroq fiskal qoidalarni o'rnatish to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilmaydi. Iqtisodchi olimlar Kopits va Symanskylar fiskal qoidalarning soliq-budjet siyosatidagi ta'sirlarini o'rganib chiqishdi<sup>[8]</sup> va bu qoidalarga "hujjatda ko'rsatilgan, belgilangan ko'rsatkichlarni xuddi o'ziday ado etish" deya ta'rif berishdi. Bu juda tor ma'nodagi ta'rif hisoblanadi<sup>[9]</sup>.

Qarzga cheklar qoidalari va targetlarining asosiy muammosi, bu majburiyatning eng optimal bosqichi nima ekanligini aniqlashning qiyinligida va shuning uchun ham targetlashda ham shu kabi muammolarga duch kelinadi. Ko'plab adabiyotlar eng optimal qarz miqdorini aniqlashda yordamchi manba bo'lib hisoblanmaydi.

Berilgan optimal qarz miqdorini belgilash qiyin va qarzlarining o'zgarib turishi, bu ijtimoiy yordam sifatiga ham bog'liq hisoblanadi. Qarzning eng yuqori nuqtasi sezuvchan target nuqtalarini ham yaratishi mumkin. Biroq qarz yuqori nuqtadan sezilarli pastlasa, qisqa davrli budjet siyosatida cheklar yuzaga keladi.

**Budjet defitsitiga cheklov.** Bu qoida uzoq muddatli hisoblanib, biroq budjet daromadlari va xarajatlari kabi moliyaviy organlarning qo'l ostida bo'lgan dasturlarga qaratilgan qoidalarni kategoriyasi hisoblanadi. Bunda qoidalarni bir qator spesifikatsiyalarga, jumladan, umumiylar, tarkibiy va davriy balans qoidalari bo'linadi.

Mazkur qoidalarni muayyan daromadlar manbayiga nisbatan qo'llanishi mumkin, masalan hom-ashyo manbayiga nisbatan. Uslubiy komponentni tanlashda potensial variantni tanlab olish kerak. Qoidaning ko'p variantlari murakkab bir vositaga aylanib qolishi mumkin, bunda hukumatdan yuqori malaka talab qilinadi. Iqtisodiy davr fazalarining aniq emasligi cheklovni ta'sirchanligini va holatini nazorat qilish bilan mos kelmasligi mumkin, bu iqtisodiy davrning salbiy tomoni hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar Alesina va Perottilarning takidlashicha, budjet balansi qoidalarning muammosi ularning moslashuvchan emasligidan kelib chiqadi<sup>[10]</sup>. Darhaqiqat, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashda fiskal qoidalardan doimiy ravishda foydalanish yuqori samara bermaydi. Ular to'g'ridan to'g'ri proporsionallikka odatlangan. Shuning uchun ham odatda defitsit qoidalari bir yillikka mo'ljallab ishlab chiqiladi. Bu esa ehtiyyotkor siyosatni ta'minlashga yordam beradi. Biroq, egiluvchanlikning o'sishi, bu qoidalarning faoliyatiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bu esa ochiq oydin muammo hisoblanadi. Agar qoida yillik aylanma davrining o'rtacha qiymatiga o'z ta'sirini o'tkaza olmasa, qoidaning asosiy maqsadlarini qayta o'rnatish kerak bo'ladi. Buning bilan budjet siyosatini ko'rinishini va o'mini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rsatkichlarning tahmin qilingan miqdorlari bajarilishi mobaynida, soliq-budjet siyosatining ishlab chiqilgan qoidalarni to'g'irlab chiqishga harakat qilinadi. Har bir yil uchun mo'ljallangan, targetlangan ko'rsatkichlarni bir yechim talab qiluvchi muammo hisoblanadi. Bu jarayon keyinchalik davom etib avtomatik tarzdagi barqarorlikka olib boradi. Biroq, davriy o'zgartirish bu texnik jarayon hisoblanib, ko'plab kamchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu yerda soxtakorlik bo'lishi kerak emas va shaffoflik talab etiladi. Avtomatik tarzda kelib chiqadigan barqarorlik esa makroiqtisodiy barqarorlikning holatidan kelib chiqqan holda optimal bo'lishi kerak.

Fiskal qoidalarning moslashuvchanligi va egiluvchanligi savdo aloqalari o'rtasidagi shaffoflikni talab qiladi. Egiluvchanlik va moslashuvchanlik sharoitlarida savdo aloqalarini o'rnatishda ehtiyyotkor rejalaridan foydalanish o'ta zarur hisoblanadi. Aynan hisobot davri mobaynida kelib chiqadigan riskni kamaytirish maqsadida ham shunday qilish kerak. Biroq, bu yo'l yangi moslashuvchi qoidalarning paydo bo'lishiga turtki bo'lishi ham mumkin. Bu esa ehtiyyotkorlik chegarasini kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, uzoq mo'ljallangan ehtiyyotkor rejalar katta ko'rsatkichlar berishi ham mumkin. Bu orqali qoidalardan afzalliklar kela boshlaydi. Bu esa qoidalarning to'g'ri tuzilganligi va to'g'ri tashkil qilinganligidan dalolat beradi. Eng asosiyalaridan biri bo'lib, qoidalarni tahlil qilish hisoblanadi, bu esa mukammal hisob-kitob tizimining yaratilishiga turtki bo'ladi va tashqi faoliyat zararlilikdan, yashirinlilikdan ochiq-oydin shaffoflikka o'tadi. Manzilga yo'naltilgan harakatlar potensiali esa hisob kitoblardan foydalanish va standartlar turlarini o'z ichiga oladi<sup>[11]</sup>.

**Xarajatlarga cheklov.** Mazkur qoida xarajatlarga yoki davlatning yakuniy iste'mol xarajatlariga, masalan xarajatlarning muayyan turiga cheklov o'rnatadi. Bu qoida budjet siyosatining davriyigini kamaytiradi va yuqori



daromadli yoki bo'limasa iqtisodiy inqiroz davrlarida tizimning barqarorligini ham yuqqa chiqarishi mumkin. Ish-sizlarga ajratiladigan nafaqlar kabi to'lovlarning qoidadan tashqarida bo'lishi, qoidaning katta antisiklik ekanligini keltirib chiqaradi. Ammo, qoidaning haddan tashqari soddaligi uni kamchiligi bo'lishi ham mumkin. Bazan, qo'shimcha qoidalari joriy etish va qoidani bekor qilish bilan bunga yo'l qo'ymaslik kerak.

Ba'zi mamlakatlarda sarf-xarajatlarning aniq yo'nalishlari bo'yicha ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ulardan ba'zi birlarini ko'rib chiqamiz:

Xarajatlar qoidalaring asosiy afzalligi shundaki, ular manbalarda kamomadni bartaraf etish, ya'ni ortiqcha xarajatlar uchun bosim bo'lib, budget jarayonining ishtirokchilarini budget cheklovlarini o'zlashtirishga majbur qiladi. Hukumat to'g'ridan to'g'ri nazorat qilishi mumkin bo'lgan narsalar uchun mas'uldir, bu esa iqtisodiy o'zgarishlarga juda bog'liq ekanligi sababli ham kamchiliklardan holi emas. Ikkinci afzalligi bu – xarajatlar qoidalari oddiy, xarajatlar cheklovi maqsadi esa budget jarayonida keng jamoatchilik tomonidan tushuniladi. Bundan tashqari, xarajatlar cheklovi yoki maqsadlar kamomadini davriy belgilangan chora-tadbirlarga nisbatan kuzatish oson hisoblanadi. Uchinchidan, prinsipial jihatdan xarajatlar qoidalari fiskal intizomni saqlab turishi va avtomatik stabilizatorlarning ishlashiga imkon beradi. Umuman olganda, sarf-xarajatlar miqdorlari va qoidalardan foydalanish odatda ularni qabul qilgan mamlakatlarda fiskal intizomni sezilarli darajada kuchaytirgan deb hisoblanadi.

**Daromadlarga cheklov.** Daromadlarga cheklov qoidasi bu shunday qoida bo'lib, u iqtisodiyotga ortiqcha moliyaviy bosim beruvchi tizimni nazorat qiladi. Qoida daromadlar miqdorini nazorat qilmaydi va kuchli davriylikni kamaytirishi mumkin.

Fiskal qoidalari bir qator xususiyatlarga ega bo'lib, xom ashyo import va eksport qiluvchi mamlakatlarda sanoat tizimini nazorat qiladi. Budget qoidalarni o'rnatishda, odatda mamlakatlar asosan ikki maqsadga erishishni oldinga maqsad qilib qo'yadi resurslarni tejash va ularning sarflanish miqdorini rejadagi miqdorga tenglashtirish<sup>[7]</sup>. Masalan, 2018-yilda Rossiyada yangi fiskal qoidalari joriy etilgan, uning maqsadi xarajatlarning haddan ziyod o'sishi va budgetdan tashqari fondlardan foydalanish yo'li bilan fiskal xavfsizlikni ta'minlash bo'lgan.

Bundan tashqari, joriy etilgan budget qoidalari budget siyosatining pasaytiruvchi rolini kamaytirish, iqtisodiyotning xom ashyo bozoriga bog'liqligini kamaytirish va mamlakatda barqaror makroiqtisodiy muhitni yaratishga qaratilgan<sup>[12]</sup>.

Fiskal nazorat qoidalarni amalga oshirish birmuncha qiyin holat hisoblanadi. Moliyaviy kamomad qoidalarni faqatgina qattiq olib boriladigan huquqiy qoidalari va normativ-huquqiy hujjatlarga qisqartirishi mumkin. Tarkibiy islohotlar qisqa muddatda budget konsolidatsiyalariga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, agar islohotlar uzoq muddatda davlat moliyasini yaxshilashi kutilgan bo'lsa, ular ushbu qonuniyatga mos kelmasligi kerak.

Moliyaviy qoidalarni qo'llash odatda intizomiy xavfsiz davrda hisobga olinadi. Huquqshunoslar odatiy mustahkamlik va qoidalarning bir xil qo'llanilishi haqida qayg'urishlari kerak, iqtisodchilar fiskal qoidalarning o'ziga xos ta'siridan xavotirda bo'ladilar. Shu bilan birga, huquqiy ta'riflar va iqtisodiy sharhlarning muayyan usullari bilan bog'liq iqtisodiy natijalarga oid huquqiy tahlilni amalga oshirish qoidalarni qo'llashning umumiy tatbiqini moslashtirishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib aytishimiz mumkinki, budget qoidalaring joriy qilinishi mamlakatda iqtisodiy islohotlarga ijobjiy hamda salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu boisdan ham bu qoidalarni joriy qilishdan avval, uning ijobjiy tomonlarini va salbiy tomonlarini malakali xorijiy ekspert mutaxassislar yordamida hisoblash maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bunday tahillilar budget qoidalarni joriy qilish bizga samarali foya beradimi yoki yo'qmi degan savollarga javob bo'la oladi.

Budget qoidalarni o'rnatish qator chora-tadbirlar tizimini qamrab oladi, xususan:

- budget tizimining yaxlitligini ta'minlash va jamlanma budgetni to'liq joriy etish;
- qarz majburiyatli tarkibini diversifikatsiya qilib borish;
- qarz va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash;
- makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash.

Umuman olganda, budget qoidasini joriy etish fiskal siyosat samaradorligini oshirish bilan birga budget defitsiti va davlat qarzi haqidagi ma'lumotlar bo'yicha Markaziy bankga yetarlicha signal bo'lib xizmat qiladi hamda mamlakatda muvofiqlashtirilgan fiskal-monetar siyosat yuritilishiga ko'maklashadi.

Ta'kidlash o'rinniki, monetar siyosat ham o'z xatti-harakati va maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha fiskal idoralarni yetarlicha xabardor qilishi, joriy iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib operativ oqilona qaror qabul qilishi lozim hisoblanadi. Bunda Markaziy bankka "monetar qoida"lar kerakli mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Luis Carranza-Ugarte, Julián Díaz-Saavedra and Jose Enrique Galdon-Sánchez., 2023. Rethinking fiscal rules. Journal of Comparative Economics, <https://doi.org/10.1016/j.jce.2023.02.005>.
2. Hovick Shahnazarian,. 2023. Fiscal stabilization rule. Journal of Macroeconomics, Volume 77, <https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2023.103528>.
3. Bimal Adhikari, Jeffrey King, Krishna Chaitanya Vadlamannati and Daniel Ofoe Chachu, 2023. Why do some natural resource-rich countries adopt prudent fiscal rules? An empirical analysis. The Extractive Industries and Society, Volume 14, <https://doi.org/10.1016/j.exis.2023.101234>.
4. Antoine Le Riche,. 2022. Balanced-budget fiscal rules and money growth pegging. Journal of Macroeconomics, Volume 73, <https://doi.org/10.1016/j.jmacro.2022.103428>.
5. Graciela Chaparro Guevara, Lorenzo Escot,. 2021. Monetary policy rules: An approach based on the theory of chaos control. Results in Control and Optimization, Volume 4, <https://doi.org/10.1016/j.rico.2021.100038>.
6. Jean-Louis Combes, Alexandru Minea, Mouss'e Sow. (2017). Is fiscal policy always counter-(pro-) cyclical? The role of public debt and fiscal rules. Economic Modelling, 65, 138–146.
7. Skrypnik, D. V. (2016). Budjetnye pravila, effektivnost pravitelstva i ekonomicheskiy rost. Of The New Economic Association, 12.
8. Kopits, G. and S. Symansky (1998), "Fiscal Policy Rules", International Monetary Fund, Occasional Paper, No. 162.
9. Hemming, Richard, and Michael Kell. (2001). Promoting fiscal responsibility: transparency, rules and independent fiscal authorities. Rules and Independent Fiscal Authorities (February 1, 2001).
10. Alesina A. F., Perotti R. Budget deficits and budget institutions // Fiscal institutions and fiscal performance. University of Chicago Press, 1999. R. 13–36.
11. Hemming, Richard, and Michael Kell. (2001). Promoting fiscal responsibility: transparency, rules and independent fiscal authorities. Rules and Independent Fiscal Authorities (February 1, 2001).
12. Jirnov G. A. Otsenka effektorov vliyaniya budjetnogo pravila na sostoyanie budjetnoy sistemy Rossiyskoy Federatsii. M.: Vysshaya shkola ekonomiki, 2018. – (3) 53 c.



**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

